

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARINI VA SAMARODARLIGINI OSHIRISH USHLUBLARI

Ochilova Mo`tabar Safoevna

Toshkent Arxitektura qurilish instituti o`qituvchisi

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarida bo'layotgan tezkor o'zgarishlar ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lim tizimi orqali respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. SHuning uchun ta'limda eng muhim strategik yo'nalish bo'lib ta'lim muassasalarini innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha ta'lim muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutaxassis pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim orqali intellektual mulkni tayyorlash va intellektual mulk tizimini innovatsion faoliyat ko'rinishida amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Ijodiy qobiliyatlarni (kreativlik) baholashda berilgan vazifani yechishning "engilligi", "moslashuvchanligi va egiluvchanligi", "originalligi"ga e'tibor beriladi.

QOBILİYATLARNING TABIIY SHARTLARI

Har bir kishida tug'ma layoqat nishonalari, ya'ni miyaning oliy nerv faoliyatining analizatorlarining o'ziga xos xususiyatlari bor bo'ladi, binobarin, kelgusida biror qobiliyatni rivojlantirishga bo'lgan muayyan moyillik ana shunga bog'liqdir. Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarning majmui kishining iste'dodi deyiladi. Lekin bu tabiiy layoqat nishonalari muvaffaqiyatli faoliyatning to'la-to'kis shart-sharoiti bo'la olmaydi. Layoqat nishonalarni rivojlantirish kerak, bu esa faoliyat jarayondagina ruy berishi mumkin. Layoqat nishonalari ko'p qiymatlidir, yana tegishli sharoitlar mavjud bo'lganda, faoliyatga qarab layoqat nishonalari asosida turli qobiliyatlar rivojlanishi mumkin. Masalan, yaxshi eshitish va ohangni sezish qobiliyati mavjud bo'lganda bir kishi kompozitor, ikkinchisi yaxshi ijrochi, uchinchisi yaxshi dirijyor, to'rtinchisi musiqa tanqidchisi va hokozolar bo'lib yetishmogi mumkin. Qulay sharoitlar mavjud bo'lganda ayrim kishilarda qobiliyatlar juda erta rivojlanadi. Odatda musiqa va tasviriy san'atga bo'lgan layoqat ancha ertaroq paydo bo'ladi. Masalan, M.I. Glinka 3-4 yoshidayoq shunday o'yinni juda yoqtirgan: u ovoz chiqaradigan turli buyumlarni (mis, tog'oracha, kostrilka) yog'och bilan chalgan. Bunda kattalarni hayron qoldiradigan darajada ohangdosh tovushlar paydo bo'lganki, ularni eshitish maroqli edi. Keyinchalik bu bola buyuk kompozitor bo'lib yetishdi.

Biroq shunday ham bo`ladiki, kishilar bolalikda favqulodda qobiliyatlarini nomoyon qilganlar-u, biroq katta bo`lgach, ulardan mahrum bo`lganlar. Lekin bunday hollar nisbatan kam uchraydi.

Qobiliyatlar faoliyat davomida rivojlanadi. Qobiliyatlarni rivojlantirishning birinchi sharti - faoliyatga bo`lgan ehtiyojni tarbiyalashdir. Mehnatga bo`lgan ehtiyojni tarbiyalash uchun ishga qiziqish va unga odatlanish katta ahamiyatga egadir.

Qobiliyatlar shaxsning boshqa sifatlari bilan chambarchas bog`langan. Kishining talantli ekanligi ma`lum darajada uning psixik jarayonlari, shuningdek, ko`pgina psixik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga bog`liq bo`ladi. Ayrim qobiliyatlarni rivojlantirishda tegishli bilish jarayonlarining yuqori darajada bo`lishi hal qiluvchi rol o`ynaydi. Masalan, musiqachi uchun eshitish, rassom uchun ko`rish idroklari katta ahamiyatga ega. Kishi o`z qobiliyatlarini rivojlantirish bilan shug`ullanar ekan, bu rivojlanish quruq maqsaddan iborat bo`lib qolishi kerak emas. Asosiy vazifa jamiyatning munosib, foydali a`zosi bo`lib yetishishdan iboratdir. Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o`z-o`zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o`zini boshqalarga qiyos qilish asosida o`z shaxsining betakror ekanligini angalay olishi; o`zi to`g`risidagi kreativ ko`rinishlar va tasavvurlari to`plami; individual kreativ o`ziga xosliklarning bir butunligi va uyg`unligi, ichki birligi; shaxsning o`z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o`zini namoyon qila olishi va o`zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o`zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o`zining o`rnini angalay olishi .

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o`qituvchining kasbiy mahorati cho`qqilariga erishuvda uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

O`qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo`ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko`nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko`rsatadi:

fikrining ravonligi;

fikrni maqsadga muvofiq yo`llay olishi;

o`ziga xoslik (originallik);

qiziquvchanlik;

farazlar yaratish qobiliyati;

xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

O`qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin:

Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar tuzukkina ko`chiriladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik

usullar kiritiladi; uchinchi bosqichda g’oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to’la ishlab chiqiladi; to’rtinchi bosqichda o’qitish va tarbiyalashning o’z betakror kontsepsiyasi va metodikasi yaratiladi.

O’qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiya.

Ta’lim tarbiyaga yondoshuvlar. Pedagogika fani va ta’lim-tarbiya amaliyotida turli yondashuvlar qo’llaniladi. An’anaviy yondashuv, tizimli yondashuv, texnologik yondashuv, tanqidiy yondashuv, funksional, kompleks, faoliyatli yondashuv shular jumlasidandir.

An’anaviy yondashuv. Uning asosiy xususiyati-o’qituvchi ma’lum axborotni gapirib beradi, tushuntiradi, talaba esa bu bilimni xotirasida saqlaydi. “Bilim” tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma’nosida tushuniladi. Talabada bilim bor-yo’qligi imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bunda bilim degani asosan esda qoldirishning natijasidir, u ko’pincha yuzaki bo’lishi ham mumkin. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi. Talaba savol berilganda eslashi, ba’zan eslay olmasligi ham mumkin.

An’anaviy o’qitish usulida ta’lim maqsadi dastur talabiga binoan aniq ifodalanmaydi, talabning o’zlashtirish darajasi, sifati haqida muallim aniq tasavvurga ega bo’lmaydi.

An’anaviy ta’lim mamlakatimiz o’quv yurtlarida keng tarqalgan, uning turli jihatlari pedagogika, metodika fanlarida ishlab chiqilgan, katta tajriba to’plangan. An’anaviy ta’lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etayotir, lekin uning obyektiv imkoniyatlari cheklangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar, tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan fan-texnika talablari-ta’lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, barkamol avlodni shakllantirishga bo’lgan ehtiyoji o’rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta’limda boshqa yangi yondashuvlarni qo’llash yo’li bilan hal etish lozim.

Tizimli yondashuv. Tizim so’zi- tuzilma, qismlardan tuzilgan, birikkan yaxlit narsa yoki hodisa ma’nosini anglatadi. Tizim tushunchasi va so’zi, boshqa ma’nolarga ham ega. Masalan, tizim-ip, sim kabilarga terilgan narsa; tizim-shoda (bir tizim marvarid, bir shoda marjon kabilar). Shuningdek, kibernetik tizim, axborotlar tizimi, ijtimoiy munosabatlar tizimi, xarakterlar tizimi, pedagogik tizim kabi tushunchalar shaklida ham qo’llaniladi. Tizim tushunchasi odatda ayrim belgilariga ko’ra turlarga ajratiladi: moddiy narsalar tizimi; mavhum tushunchalar, faraziyalar, nazariyalar, ilmiy bilimlar tizimi kabilar.

Tizimli yondashuv ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo’nalishi sifatida universal tavsifga ega, pedagogikada keng vo’llaniladi, ta’lim-tarbiyaga ham pedagogik tizim sifatida qarash lozim.

“Tizimli yondashuv” tushunchasi ko’pincha “tizimli metod”, “tizimli tahlil usuli” tushunchalari bilan uzviy bog’liq holda qo’llaniladi. Chunki tizimli tahlil usullari ham obyektning yaxlit tizim sifatida o’rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv, ayniqsa, tuzilish-vazifasiga ko’ra bajariladigan tahlilga juda yaqin. Tizimli tahlilning obyekti yaxlit narsa yoki hodisa (tizim) hisoblanadi, u, birinchidan, obyektning turli qismlarini; ikkinchidan, qismlarning o’zaro bog’liqligini; uchinchidan, tizimning chegaralarini va to’rtinchidan, tizimning atrof-muhit bilan bog’liqligi, aloqadorligini nazarda tutadi. Ijodiy faoliyatning turli bosqichlarida muayyan strategiyalar, taktikalar va metodlarini qo’llashga yo’naltirilgan ishbilarmon va rolli o’yinlar. Masalan: «Ilmiy tadqiqot ishida ma’ruza, bahs - munozara» turidagi o’yinda, asosiy rollar quyidagilardan iborat bo’lishi mumkin:

«boshlovchilar» - o’qituvchi yoki talabalar ilmiy - tadqiqot ishlari olib borayotgan ishlab chiqarish (ilmiy muassasa) mutaxassisi. Tajriba to’planib borgan sayin aspirant va talabalar ham boshlovchilarga aylanadilar;

«yo’lboshchilar» - muhokama qilinayotgan muammoning muayyan masalalari bo’yicha vaziyatni muhokamaga olib chiquvchi ma’ruzachilardir.

«bezatuvchilar» - yo’lboshchilarning ma’ruzalari va chiqishlarini ko’rgazmali ravishda taqdim etuvchi va tushuntiruvchi o’yin qatnashchilari;

«assistentlar» - yo’lboshchining yordamchilari. Ular yo’lboshchilarga va opponentlarga barcha ko’rgazma materiallarini namoyish qilishda ko’maklashishlari kerak;

«rasmiy opponentlar» - yo’lboshchilar tomonidan tayyorlangan ma’ruzalar yoki boshqa materiallar bo’yicha mulohaza bildirish vazifasi rasmiy topshirilgan o’yin qatnashchilari;

«norasmiy opponentlar» - muammo bo’yicha ilmiy - tadqiqot ishlari olib boruvchi qolgan barcha talabalar, o’yin qatnashchilari;

«ig’vogarlar» - ishlab chiqarishda (ilmiy muassasada) mavjud salbiy hodisalar, dalillar va shu kabilarni qo’shimcha bayon qilish asosida, o’yin qatnashchilarining faolligini oshirishga undovchi, muammolar qo’yishi kerak bo’lgan o’yin qatnashchilari (ishlab chiqarish yoki ilmiy muassasa mutaxassislari, oliy o’quv yurtining o’qituvchilari yoki ilmiy xodimlari, aspirantlar, magistrlar va talabalar);

«qayd qiluvchilar» - munozaraning borishini qog’oz tasmaga, foto yoki magnit tasmasiga yozib boruvchi o’yin ishtirokchilari;

«ekspertlar» - ma’ruzachilar, muzokarachilar, jamoa qarorlariga holisona baho beruvchi o’yin qatnashchilari (ishlab chiqarish va ilmiy muassasa mutaxassislari, oliy o’quv yurti o’qituvchilari yoki ilmiy xodimlari, aspirantlar magistrlar va talabalar).

Bunday munozara - o’yinlarning asosiy maqsadi:

bo’lajak mutaxassislarni (masalan tadqiqotchilarni) muayyan ishlab chiqarishdagi vaziyatlar, ishlab chiqarish mutaxassislari va talabalarni yozma va

ogʻzaki maʼruzalarini yoki mulohazalarini taqdim qilish asosida olib borilayotgan ilmiy - tadqiqot ishlarining mohiyati, mazmuni va borishi haqida axborot almashishga oʻrgatish;

boʻlajak mutaxassislariga oʻz nuqtai nazari, oʻz qarashlarini isbotlash va himoya qila olish mahoratini shakllantirish, oʻz gʻoyalari bildirgan gʻoyalarining mohiyatiga kirib borish, ishlab chiqarishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarining muayyan bosqichlari boʻyicha qarorlar qabul qilish koʻnikmalarini barpo etishdan iborat.

Munozara - oʻyinlar boʻlajak mutaxassislarda, ilmiy ishlab chiqarish muammolarini qoʻyish va uni hal qilishga qiziqishni, tadqiqot ishlariga holisona (turli nuqtai nazarlarni qabul qila olish mahorati) yondashishni tarbiyalaydi: talabalarda muammoni qoʻyish, uning borishi va echimi natijalarini muhokamasida, haqiqiy munozaralar va ilmiy - amaliy anjumanlar va ularda muhokama qilinayotgan masalalar boʻyicha qarashlar, gʻoyalar, bilimlar va tajribalarni erkin almashtirishda oʻzini muayyan koʻnikmalarini hosil qiladi.

Talabalarni ijodiy faoliyatdagi omillari.

Talabalarning faol mustakil ishlari faqat jiddiy va barqaror qiziqishlar mavjud boʻlgandagina amalga oshishi mumkin. Bunday eng jiddiy omil - kelgusi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlikdir. Talabalarni mustaqil ishlarini faollashtirishga imkon beruvchi ichki omillarni koʻrib chiqaylik:

1. Qilinayotgan ishning foydaliligi. Agar talaba oʻz ish natijalarining maʼruza jarayonida, metodik qoʻllanmada, laboratoriya ishida yoki amaliy mashgʻulotlarda, maqolalar tayyorlashda foydalanilishi mumkinligini bilsa, uning bajarayotgan ishiga boʻlgan munosabati keskin tarzda yaxshi tomonga oʻzgaradi, hamda ish sifati ham ortadi. SHunga koʻra, talabani ruhan shu ishga tayyorlash, bajariladigan ishning zarurati koʻrsatib berilishi kerak.

2. Talabaning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu nihoyatda xilma-xil koʻrinishlarda boʻlishi mumkin. Xususan, kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari, badiiy ijod, metodik ishlar va hokazolar.

3. Fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlaridap ishtirok etish v.b.

4. Bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillardan foydalanish (reyting, testlar, noanʼanaviy imtihon shakllari v.b.) Bu omillar tegishli holatlarda musobaqa ruhini vujudga keltiradi. Mana shu holatning oʻzi talabada oʻz ustida ishlashni, oʻzini rivojlantirishga ichki ehtiyojini shakllantiradi va rivojlantiradi.

Ijodiy. Jumladan, ilmiy-tadqiqot ishlari. TMI nihoyatda xilma-xil boʻlishi mumkin. Ular:

- Oʻrganilayotgan fanning alohida boblariga oid berilgan mavzu boʻyicha referat, maʼruza va yozma ishlar. Talabaga mavzu, hatto rahbarni ham tanlash huquqini berish maqsadga muvofiq boʻladi;

- Tanlangan fan bo‘yicha illyustrativ materiallarni tayyorlash, bunda mavzu o‘qituvchi tomonidan beriladi, unig mazmuni va shakli, ijrosi talaba tomonidan belgilanadi;

- Xajmi, murakkabligi, mazmuni talabaning o‘zi tomonidan shallantiriladigan mazmuni talabaning o‘zi tomonidan shallantiriladigan ilmiy krassvordlar tuzish;

- Zamonaviy olimning ilmiy monografiyasiga, yozuvchining asariga asosiy g‘oya va qoidalarni ajratgan xolda o‘z shaxsiy asoslangan bahosi hamda foydalanishga tavsiyasi ko‘rsatilgan taqriz yozish;

- Xilma-xil xarakterdagi uy vazifalarni bajarish. Bunga mashq va maslallarni echish, matnni tarjima qilish yoki qayta hikoyalash, adabiy yoki ilmiy manbalarni tanlash va o‘rganish, turli jadvallarni tuzish, grafik ishlarni bajarish, turli hisob-kitoblarni amalga oshirish v.b kiradi;

- Talabadagi tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan individual topshiriqlarni bajarish. Alohida topshiriqlarni har bitta talaba yoki talabalarning bir qismi olishi mumkin;

- Kurs ishlari.Bitiruv malakaviy ishlarini bajarish;

- Ilmiy-nazariy yoki ilmiy - amaliy anjumanlar, ko‘rik-tanlovlar, olimpiadalarga tayyorgarlik;

Tanlangan mavzu bo‘yicha ilmiy insho yozish. TMI ga ijobiy munosabatni shakllantirish va rivojlantirish uchun har bir bosqichda ishning aniq maqsadi va qo‘yilgan vazifalari tushuntirilishi, talabalar tomonidan ana shu maqsad va vazifalarning anglanganligi nazorat qilinishi kerak. Bu ishlar keyinchalik talaba tomonidan vazifalarni mustaqil tarzda qo‘ya bilish hamda maqsadlarni tanlash ko‘nikma va malakalarining shakllanishiga asos bo‘ladi.

Amaliy mashg‘ulotlarning teng yarmi, ya’ni bir juftlikning 50 %i masala va mashqlarni mustaqil bajarishga sarflanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Uni quyidagicha tashkillashtirish mumkin:

1. O‘qituvchining kirish so‘zi. (mashg‘ulot maqsadi, asosiy masalalar)

2. Tezkor so‘rov.

3. 1-2 masala yoki mashqni doska yonida bajarish.

4. Masala va topshiriqlarni mustaqil bajarish.

5. Topshiriqlarni bajarishdagi xato va kamchiliklar ustida ishlash. (joriy mashg‘ulot oxirida yoki keyingi dars boshlanishida). Mashg‘ulotlarni o‘tkazishda mustaqil ishlar va topshiriqlarini katta banki bo‘lishi maqsadga muvofiqir. Ular murakkablik darajasiga ko‘ra ajratilsa yanada yaxshi bo‘ladi. Mashg‘ulotlarni o‘tkazishda fanning xususiyatidan kelib chiqib quyidagi usullardan foydalanish mumkin

Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo‘lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbiga zo‘r qiziqish bilan qarasa, o‘z ishining ijtimoiy

ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o‘shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo‘ladi, bunday hoolda har bir shaxs jamiyatga eng ko‘p naf keltiradi.

Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning g‘oyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shug‘ullanayotgan ishini yaxshi ko‘rsa, bundan u xursand bo‘ladi, qoniqish hosil qiladi, zo‘r tashabbus ko‘rsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi.

Maktab o‘quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo‘lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo‘lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo‘lida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma‘lumotli bo‘lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma‘lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas.

Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari ob‘ektiv zaminga ega bo‘lib, voqelikda har kuni amalda oshirilmoqda.

Sanoat tez rivojlanganligi, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish borasida katta qadamlar qo‘yilganligi, ilm-fan, texnikani va madaniyatni yuksaltirish sohasidagi muvaffaqiyatlar bir tomondan, yoshlarning qiziqishlariga va qobiliyatlariga muvofiq, ikkinchi tomondan xalq xo‘jaligi talab-ehhtiyojlariga asosan kasb tanlashlari uchun amaliy jihatdan cheklanmagan imkoniyatlar yaratdi; umumiy ta‘lim maktabida mehnat poletexnika ta‘limi sharoitida kasbga yo‘naltirish muammosini ijobiy hal qilish uchun barcha shart-sharoitlar vujudga keltirildi.

Kasbga yo‘naltirish o‘quvchilarga politexnik ma‘lumot berish masalalari bilan, kasb tanlash esa muayyan bilim darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Yosh avlodga mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lishni tarbiyalash muhimdir. Ijodkorlik inson faoliyatiga umuman xos narsadir, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkoniyat mavjud bo‘ladi, chunki bolalar yoshligidanoq mehnatga qiziqib qoladilar: ular o‘z o‘yinlarida ota-onalariga, atrof-tevarakdagi kishilarga taqlid qiladilar, ularning mehnat harakatlarini takrorlaydilar. Faoliyatga ana shunda intilish, kattalarning mehnatiga taqlid qilish bolalarga maktabgacha yoshdayoq hammabop mehnat malakalarini singdirish uchun qulay omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2009. – 40 b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta‘lim Me‘yoriy hujjatlari – T.: “SHarq”, 2001. – B. 18-52.
3. “Ta‘lim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // Oliy ta‘lim Me‘yoriy hujjatlari . – T.: “SHarq”, 2001. – B. 3-18.
4. Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli qarori // Ma‘rifat gazetasi. – 17.08.2001. – №121. Karimov I. YUksak ma‘naviyat – engilmas kuch. – T., 2008